

**O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Ijtimoiy ish” kafedrasining 70920101 -
Ijtimoiy ish 1- kurs magistratura mutaxasisligi uchun “Oilalar bilan ijtimoiy
ish” fanidan yakuniy nazorat savollari**

1. Ijtimoiy ish mutaxassisining o‘rni va vazifalari tushuntirib bering.
2. Nizoli oilalar, pedagogik ko‘nikmaga ega bo‘limgan ota-onalar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyatini tushuntiring.
3. O‘zbekistonda nogironligi bor bolalarni ijtimoiy himoya qilishning mohiyati nimada?
4. 1924-yilda tug‘ilgan urush faxriysi, II guruh nogironi, A. P. Farxod kapital ta’mirlash va nafaqasini ko‘paytirishda yordam berish iltimosi bilan ijtimoiy xizmatga murojaat qildi.

Muammolar:

- 1). Uy-joydan foydalanish boshqarmasi tomonidan urush faxriysi, II guruh nogironi foydalanayotgan xonadonda kapital ta’mirlashni o’tkazish imkoniyati.
 - 2). Uning nafaqasini oshirish.
- Yechim
5. “Xavfli oila” tushunchasiga ta’rif bering.
 6. Ijtimoiy ishchining professionallik mahoratini shakllantirish omillarini izaxlang.
 7. Kam ta’minlangan oilalarning turmush darajasini oshirish bo‘yicha davlat ijtimoiy siyosatini tushuntiring.
 8. Fanda qanday turdagи oilalar mavjud?
 9. Nogironligi birlarni ijtimoiy himoya qilish qanday me’oriy va qonunchilik asoslariga asoslangan?
 10. O‘zbekistonda ayollarning ahvolini tavsiflab bering.
 11. Dunyoda nogironligi birlar qancha va ularning ta’riflari?
 12. Gender tengligi nimani anglatadi?
 13. Qanday omillar ota-onaning ajralishining bolaga salbiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin?
 14. Oila bilan ishlashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalarini yoritib bering.
 15. Oila farovonligining ko‘rsatkichlari va darajasi yoritib bering.
 16. Oilaning yosh a’zosining ajralishdan oldin, keyin va undan keyingi davrlardagi holatini tavsiflovchi belgilar to‘plamini tavsiflang.
 17. 76-yni tekshirib chiqilganda tezkor psixologik-pedagogik yordamga muhtoj oila aniqlandi. To‘liq oila (ota-on)da – uchta farzand bor. Katta o‘g‘il Rustam, 7 yosh, - nogiron. Onasining gapi bo‘yicha, shu o‘g‘li bilan me’yordagi munosabat og‘irlashgan: “U meni ham, otasini ham, o‘zining ukalarini va singillarini ham tanimaydi, boshini ushlab tura olmaydi, gapira olmaydi. Uyda nosog‘lom vaziyat, kichik bolalar kechalari alahsiraydilar, uning to‘satdan baqirishi yoki kulgisidan uyg‘onib ketadilar. Men kechalari uxmlay olmayman, asabiy bo‘lib qoldim, bolalarimiz ham xuddi shunaqa bo‘lib o’smoqdalar. Qiynalib, hamma “ha” va qarshi“larni taroziga solib, o‘zimizning kichik bolalarimiz manfaatlarini inobatga olib, biz erim bilan Rustamni nogironlar uyiga berishga va uning oldiga muntazam

borish turishga qaror qildik. Tibbiyat ko‘rigidan o‘tdik, hujjatlarni to‘pladik, va o‘shandan beri oldinga bir qadam ham siljimadik. “Joy yo‘q”. Mening uyim chiqib ketib bo‘lmaydigan katta katakka aylandi. Mening bu jahannamdan chiqishimga yordam bering – chunki, men nafaqat Rustamni, balki boshqa boalalarimni ham yo‘qotib qo‘yishim mumkin...”

Ijtimoiy xizmatchi birinchi navbatda qaysi muassasalar bilan aloqa o‘rnatishi lozim?

Bu oila bilan qanday reja asosida ish olib borish kerak?

18. Ijtimoiy havf guruhidagi oilalar bilan ijtimoiy ishning mohiyatini tushuntiring.

19. Ota-onalarning ajrashishining bolalar uchun qanday salbiy va ijobiy oqibatlarini ayta olasiz?

20. Yosh oilalarga nisbatan ijtimoiy siyosat qanday?

21. Oila farovonligini aniqlash mezonlarini tushuntirib bering.

22. Qaysi oilalar yosh oilalar toifasiga kiradi?

23. Nogironligi bor bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy xizmatlar qanday?

24. Xavfli oilani aniqlash mezonlari qanday?

25. Ayollar kundalik hayotda va ishda qanday muammolarga duch kelishadi?

26. To‘liq bo‘lмаган oilalarni tushuntirib bering?

27. Oiladagi muammolar bolalarga qanday ta’sir qiladi?

28. Ayollar qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda?

29. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nimani anglatadi?

30. Ijtimoiy xizmatchiga Ivanova P. A. murojaat qildi. Uning o‘g‘lini armiyada majruh qilishdi: umurtqa pog‘onasidagi o‘simta sindirib tushirilgan, umurtqa pog‘onasida churra paydo bo‘lgan, buyrak ham ishdan chiqqan. Tibbiy komissiya uni xizmatdan ozod qilgan. Ivanova P. A. ikkinchi bolasini harbiy xizmatga jo‘natmasligi mumkinmi?

Muammolar:

1) Armiyadagi nizomga noloyiq munosabatlardan jabrlanuvchini davolash;

2) aybdorlarni jazolash;

3) kichik o‘g‘ilning xizmatga chaqirilishini orqaga surish.

Yechim:

31. Ko‘p avlodli (murakkab) oila tushunchasigi ta’rif bering.

32. Maxsus ehtiyojli bolasi bo‘lgan oilalarning asosiy muammolari nimada?

33. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan ishlashda qanday usullardan foydalilanadi?

34. Ijtimoiy ish mutaxassisining o‘rni va vazifalari tushuntirib bering.

35. Maxsus ehtiyojli bolasi bo‘lgan oilalarning asosiy muammolari nimada?

36. Oilaning yosh a’zosining ajralishdan oldin, keyin va undan keyingi davrlardagi holatini tavsiflovchi belgilar to‘plamini tavsiflang.

37. Nizoli oilalar, pedagogik ko‘nikmaga ega bo‘lмаган ota-onalar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyatini tushuntiring.

38. Maxsus ehtiyojli bolasi bo‘lgan oilalarning asosiy muammolari nimada?

39. Qanday omillar ota-onaning ajrashishining bolaga salbiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin?

40. Bolaning gapidan: “Tushunasizmi, ular meni narsa kabi bo‘lishardi. Ularning hech biri hech qachon, biror marta ham mendan orzularim to‘g‘risida so‘ramadilar. To‘rt yil oldin, ular endigina ajrashganlarida, menda tanlash imkoniy yo‘q edi: biri mening otam, - ikkinchisi esa onam edi. Men, albatta, biz birga yashashimizni, hattoki, birga bo‘lmasa ham yashashimizni istar edim... siz tushunasiz, o‘sanda nima boshlanganini. Meni har doim buvim kutib olar va maktabdan olib ketar edi, ba’zida onam buni qo‘shtidan iltimos qilar edi. Men buvim bilan sayr qilar edim, u band bo‘lganda esa – uyda bitta o‘zim berkinib o‘tirardim. Menda hech qachon o‘z shaxsiy uyimning kaliti bo‘lman. Shunda men otamning oldiga ketishga qaror qildim, chunki men unga kerakman, deb o‘yladim, lekin keyin men unga onamga qarshi kurashda quroq kabigina kerak ekanimni tushundim. Menimcha, ularning ko‘zlari bir-biriga nafratlari tufayli ko‘r bo‘lib qolgan. Eng dahshatlisi menga hech kim yordam bera olmaganidir. Axir ularning menda haqi borligini barcha tan olardi. Buyumga huquqi borligi kabi. Ular, xuddi shu tarzda dala hovlini va mashinani bo‘lishdilar va meni ham shuning uchun bo‘lishlari mumkin”.

Bolaga birinchi navbatda qanday yordam kerak?

Ijtimoiy xizmatchi bolaning otasi va onasi bilan muloqot qilishda ijtimoiy ishning qaysi usul va shakllaridan foydalanishi lozim?

Ijtimoiy xizmatchi qaysi mutaxassislar bilan doimiy aloqada ish olib borishi kerak?

41. O‘zbekistonda nogiron bolalarni ijtimoiy himoya qilishning mohiyati nimada?

42. Ijtimoiy ishchining professionallik mahoratini shakllantirish omillarini izaxlang.

43. Ayollar qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda?

44. Fanda qanday turdagи oilalar mavjud?

45. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish qanday me’yoriy va qonunchilik asoslariga asoslangan?

46. To‘liq bo‘lman oilalarni tushuntirib bering?

47. Oila bilan ishslashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalarini yoritib bering.

48. Oila farovonligining ko‘rsatkichlari va darajasi yoritib bering.

49. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan ishslashda qanday usullardan foydalaniladi?

50. SPID (OITS) yuqqan bolalarni barchadan yashiradilar. Sir saqlashga intilib, ota-onalar ba’zida hatto berilishi lozim bo‘lgan imtiyozlardan ham voz kechadilar. Besh yoshli qiz, onasi jon-jahdi bilan rayon bo‘yicha “tez yordamni” chaqirish uchun telefon qidirib topgunga qadar xastalik xurujidan bo‘g‘ilib qolayozdi. Qo‘snilarga telefon qilgani kira olmaysan va mabodo kirsang, tashxisni ovoz chiqarib ayta olmaysan. Kasal bolasi bor ko‘pchilik oilalarda hozirgacha telefon yo‘q. Bugun, odatda, qaramog‘ida ikkita bolasi bor, ulardan biri OITS bilan kasal bo‘lgan ko‘pchilik onalar nogironlik bo‘yicha nafaqada va yordam puli hisobiga yashaydi.

OITS bilan kasallangan oilalar bilan muloqot qilishda ijtimoiy xizmatchi oldida paydo bo‘ladigan asosiy muammo nima?

Bu oilalarning muammolarini yechishda ijtimoiy xizmatchi amalga oshiradigan harakatlar nimadan iborat bo‘lishi kerak?

Ijtimoiy xizmatchi qaysi mutaxassislar bilan muloqotda ishlashi kerak?

51. Ko‘p avlodli (murakkab) oila tushunchasigi ta’rif bering.

52. Qaysi oilalar yosh oilalar toifasiga kiradi?

53. Nogironligi bor bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy xizmatlar qanday?

54. Moskvada ikkita firibgar paydo bo‘ldi, ular sug‘urta agentlari ko‘rinishi ostida nafaqaxo‘rlar ishonchiga kiradilar va ulardan qimmatbaho narsalarini oladilar. Kecha militsiyaga poytaxtning Drujba ko‘chasida va Sharqiy okrugning Mosfilm ko‘chasida yashaydigan 76 va 80 yoshli jabrlangan qariyalarning qarindoshlaridan ikkita ariza tushdi. Ularning uyiga kechqurun o‘zlarini ijtimoiy sug‘urta xodimlari deb tanishtirgan ikkita notanish ayol keldi. Bitta firibgar sug‘urta polislarini olishda yordam berishni va’da qilib nafaqaxo‘rlarni suhbat bilan chalg‘itib turganda uning sherigi zargarlik buyumlarini o‘g‘irlab ketdi.

Qanday qilib shunga o‘xhash firibgarlikni chetlab o‘tish mumkin?

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish xizmatlaridan foydalanadigan qariya odamlarga eslatma tuzing. Ijtimoiy xizmatchi yordamchisining shaxsiyatini tasdiqlaydigan maxsus hujjatlarni ishlab chiqing.

55. Ko‘p avlodli (murakkab) oila tushunchasigi ta’rif bering.

56. Maxsus ehtiyojli bolasi bo‘lgan oilalarning asosiy muammolari nimada?

57. Ayollar qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda?

58. Quyida bayon qilinadigan vaziyatning oldini qanday qilib olish mumkin edi? “Tug‘ilishi istalmagan” bolalar muammolarini hal qilish to‘g‘risida nimalarni bilasiz? Bunda qanday mutaxassislarning yordami zarur bo‘ladi?

Poytaxtdagi Xamovniki tepaligi ko‘chasida yashaydigan 29 yoshli fuqaro o‘zining 3 oylik o‘g‘li Alyoshani o‘lguncha urdi. Bola tug‘ilgandan boshlab u doimo undan qutilish istagida ekanini gapirar, yaqinda bolani urgan bo‘lib, shu kunlarda esa yosh ona ish bilan uydan chiqqanda qotillik sodir etdi. Bola tug‘ilguniga qadar ota-onaning har ikkisi ham o‘zini tutishda namuna emas edi. Alekseyning onasi 18 yoshda. U ko‘p farzandli, aroq daryo bo‘lib oqadigan oilada o‘sigan va spirtli ichimliklarga yoshligidan ruju qo‘ygan. Qizning yigit o‘z aybi bilan og‘ir oqibatlarga olib kelgan avtofalokatni sodir etgan va tergov ostida bo‘lib ulgurgan. Bola er xotinlarning hech biriga kerak emas edi va hozirgacha yosh ayol tug‘ishga jazm etishining sababi aniq emas. Bola 15-iyulda sog‘lom va polvon bo‘lib tug‘ildi.

Yaqinda qotil xotinini, bolaga o‘zi qarab turishini aytib, vinoga yubordi, bolaning kallasiga urdi va ustiga og‘ir narsani bostirib qo‘ydi. Chaqaloq xirilladi, nafas olishdan to‘xtadi. Bolaning halok bo‘lgani ma’lum bo‘lgandan keyin er va vino ko‘tarib kelgan xotin xonadondan qochishdi. Ayblovni endi faqatgina otaga qo‘yishsa kerak, ona esa guvoh rolini bajaradi.

59. Xavfli oilani aniqlash mezonlari qanday?

60. Ayollar kundalik hayotda va ishda qanday muammolarga duch kelishadi?

61. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan ishlashda qanday usullardan foydalaniladi?

62. Oiladagi muammolar bolalarga qanday ta'sir qiladi?

63. Ayollar qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda?

64. Qanday omillar ota-onaning ajralishining bolaga salbiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin?

65.

66. Oila bilan ishslashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalarini yoritib bering.

67. Maxsus ehtiyojli bolasi bo'lgan oilalarning asosiy muammolari nimada?

68. Oilaning yosh a'zosining ajralishdan oldin, keyin va undan keyingi davrlardagi holatini tavsiflovchi belgilar to'plamini tavsiflang.

69. Ma'lumki, ehtirosli sevgi o'smirlik yoshidagilar uchun me'yoriy holat hisoblanadi. U to'satdan qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday o'tib ketadi. O'smir sevgisining obyekti bo'lib, ashulachi, aktyor, sportsmen... bo'lishi mumkin. Mana shunday sevgidan "azoblanayotgan" bolalarga, ularning ota-onalariga qanday yordam berish mumkin? Nima uchun ota-onalar ham ishtirok etadigan "fanatlar klubi"ning tashkil etilishi ijobiy jarayon hisoblanadi? Siz ijtimoiy xizmatchi sifatida Vera va uning onasi bilan qanday aniq tadbirlar o'tkazasiz?

14 yoshli Veraning onasi A. N. Kareva shunday deydi: "Mening qizim mana bir yildirki, shumshayib yuradi. Gap shundaki, u sevib qolgan. Qandaydir odamni emas, Dmitriy Malikovni sevib qolgan. Sevgisi juda jiddiy: o'zining fanat dugonalari singari uni kechasi-yu kunduzi poylab yurishdan tashqari, unga har kuni xat yozadi va tushida uning nomini aytib chiqadi. Men uni boshqa mashg'ulotlarga qiziqtirishga urinib ko'rdim, hatto chet elga ham olib bordim. Biroq, hech narsa yordam bermayapti. Qizcham juda jiddiy, yosh bolalarga xos bo'limgan tarzda azoblanmoqda. Men hatto, o'zim uni ashulachining oldiga olib borib, undan qizim bilan uchrashishini iltimos qilmoqchi bo'ldim. Ehtimol, mening qizim ruhan sog'lom emasdир?

Maslahat bering, bizga kim va qanday yordam bera oladi?"

70. Ijtimoiy ish mutaxassisining o'rni va vazifalari tushuntirib bering.

71. Ota-onalarning ajrashishining bolalar uchun qanday salbiy va ijobiy oqibatlarini ayta olasiz?

72. Yosh oilalarga nisbatan ijtimoiy siyosat qanday?

73. Superviziya xaqida ma'lumot bering.

74. Qaysi oilalar yosh oilalar toifasiga kiradi?

75. Nogironligi bor bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy xizmatlarni tushuntiring?

76. Ijtimoiy xizmatchi mana bu bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga qanday yordam ko'rsatishi mumkin? Maktab o'quvchilari bilan qanday ishlar olib borish zarur? Bu bolalar o'qiyotgan sinflar bilan ishslash zarurati bormi? Pedagoglar bilanchi?

Fedya N., 13 yoshda. Bolagiligida qo'rkoqligi bilan ajralib turardi. Masalan, bir kuni kechqurun xonaga yolg'iz o'zi kirarkan, chiroqni yoqdi va yomon niyatli odam yo'qmikan deb krovatning tagini, shkaf ichini va orqasini qarab chiqdi. Muloqotda uning tortinchoqligi, tobe'ligi, o'ziga ishonmasligi, ma'lum darajada ezilgani ham namoyon bo'lib turadi. Bunga yana bolaning ortiqcha qo'zg'oluvchanligini ham

qo'shish kerak. U asosan o'ziga tengdosh qizlar bilan do'stlashadi. Bolalar unga "ammamning buzog'i" day qarashadi, uning xarakteri kamchiliklari ustidan ochiq kulishadi.

Katya K., 17 yoshda. Yoshligida quvnoq, harakatchan, tadbirkor qiz bo'lib, mактабда yomon o'qimasdi va jamoa hayotida faol ishtirok etardi. Ana shunday davrlardan birida o'zining birinchi muhabbatи predmeti bo'lgan sinfdoshi bilan janjallahib qoldi. Bu janjalni u munosabatlarning uzil-kesil tugatilishi sifatida his qildi, boshidan og'ir kechinmalarni kechirdi va vasvasa paytida o'zini o'ldirishga urindi (uyqu dorisining katta dozasini qabul qildi). Shifoxonada o'zini his qilishi yaxshilana boshlagandan keyin yana quvnoq va harakatchan holatga qaytdi. Shifoxonadan chiqqandan keyin ikki yil davomida uning yaxshi va yomon kayfiyatları almashib turishi kuzatildi. Yomon kayfiyat bir-ikki oyda paydo bo'lar va 1-2 hafta davom etardi. Kayfiyatdagи tafovutlar asta-sekin yo'qola bordi, biroq kayfiyatning davriyligi saqlanib qoldi. Bolaning kundalik daftari esa tahdidlar, "oxirgi ogohlantirishlar" bilan to'lib ketgan; Unga "ikkinci yil" va hatto maktabdan haydalish xavf solmoqda.

77. Ijtimoiy havf guruhidagi oilalar bilan ijtimoiy ishning mohiyatini tushuntiring.

78. Qaysi oilalar yosh oilalar toifasiga kiradi?

79. Nogironligi bor bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy xizmatlar tushuntiring?

80. Ijtimoiy xizmatchi mana bu bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga qanday yordam ko'rsatishi mumkin? Maktab o'quvchilari bilan qanday ishlar olib borish zarur? Bu bolalar o'qiyotgan sinflar bilan ishslash zarurati bormi? Pedagoglar bilanchi?

Fedya N., 13 yoshda. Bolagiligida qo'rkoqligi bilan ajralib turardi. Masalan, bir kuni kechqurun xonaga yolg'iz o'zi kirarkan, chiroqni yoqdi va yomon niyatli odam yo'qmikan deb krovatning tagini, shkaf ichini va orqasini qarab chiqdi. Muloqotda uning tortinchoqligi, tobe'ligi, o'ziga ishonmasligi, ma'lum darajada ezilgani ham namoyon bo'lib turadi. Bunga yana bolaning ortiqcha qo'zg'oluvchanligini ham qo'shish kerak. U asosan o'ziga tengdosh qizlar bilan do'stlashadi. Bolalar unga "ammamning buzog'i" day qarashadi, uning xarakteri kamchiliklari ustidan ochiq kulishadi.

Katya K., 17 yoshda. Yoshligida quvnoq, harakatchan, tadbirkor qiz bo'lib, mактабда yomon o'qimasdi va jamoa hayotida faol ishtirok etardi. Ana shunday davrlardan birida o'zining birinchi muhabbatи predmeti bo'lgan sinfdoshi bilan janjallahib qoldi. Bu janjalni u munosabatlarning uzil-kesil tugatilishi sifatida his qildi, boshidan og'ir kechinmalarni kechirdi va vasvasa paytida o'zini o'ldirishga urindi (uyqu dorisining katta dozasini qabul qildi). Shifoxonada o'zini his qilishi yaxshilana boshlagandan keyin yana quvnoq va harakatchan holatga qaytdi. Shifoxonadan chiqqandan keyin ikki yil davomida uning yaxshi va yomon kayfiyatları almashib turishi kuzatildi. Yomon kayfiyat bir-ikki oyda paydo bo'lar va 1-2 hafta davom etardi. Kayfiyatdagи tafovutlar asta-sekin yo'qola bordi, biroq kayfiyatning davriyligi saqlanib qoldi. Bolaning kundalik daftari esa tahdidlar, "oxirgi ogohlantirishlar" bilan to'lib ketgan; Unga "ikkinci yil" va hatto maktabdan haydalish xavf solmoqda.

81. Oilaning turlari va uning funksiyalari yoritib bering.
82. Oila siyosati va oilaga qaratilgan nazariyalarni tushuntiring.
83. Ijtimoiy xizmat turlarini izohlang.
84. Muammolar, oilani inqiroz holatiga keltiruvchi yoki uni mustahkamlovchi omillarni izohlang.
85. O‘zbekistonning ijtimoiy siyosatining mohiyatini tushuntiring.
86. Ijtimoiy havf guruhidagi oilalar bilan ijtimoiy ishning mohiyatini tushuntiring.
87. Quyida onaning hikoyasi va uning muammolarini hal qilish yo‘llari keltirilgan. Nima uchun bu vaziyatdan chiqish variantlaridan birortasi ham to‘g‘ri emas? Siz qanday yechim taklif qilishingiz mumkin? Bu oila bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borishning qaysi usullari va shakllari eng samarali bo‘lishi mumkin? To‘liqsiz oilalardagi bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagoglar nimalarni hisobga olishlari zarur? “O‘g‘limni men yolg‘iz o‘zim tarbiyalayman. U otasini hech ko‘rmagan, bundan keyin ham ko‘rmasa kerak. Bola faqatgina ayollar orasida o‘sayotgani meni tashvishlantiradi: uyda men va mening dugonalarim, bolalar bog‘chasida – enagalar va tarbiyachilar, maktabda ham faqatgina ayollar bo‘ladi. U yaqinda yetti yoshga to‘ladi, lekin haligacha u birorta erkak bilan gaplashgan emas. Shunday sharoitda erkaklarcha xarakter belgilari shakllanishi mumkinmi?”
88. Nikoh haqida an’anaviy tasavvurlarni tushuntirib bering.
89. Aholini ijtimoiy himoya tizimi: tushunchasi, asosiy funksiya va prinsiplarini tushuntirib bering.
90. Oila bilan ishslashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalarini yoritib bering.
91. Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishni tushuntirib bering.
92. Ijtimoiy yordam turlarini ifodalab bering.
93. Ijtimoiy terapiya nima?
94. Oila terapiyasi usulini tushuntiring.
95. Ijtimoiy ishchining professionallik mahoratini shakllantirish omillarini izaxlang.
96. Oila bilan ishslash jarayoni. Qiyin hayotiy i vaziyatda bo‘lgan oila to‘g‘risida ma’lumot va tahlil qilish tizimini yoriting.
97. Quyida onaning hikoyasi va uning muammolarini hal qilish yo‘llari keltirilgan. Nima uchun bu vaziyatdan chiqish variantlaridan birortasi ham to‘g‘ri emas? Siz qanday yechim taklif qilishingiz mumkin? Bu oila bilan ijtimoiy-pedagogik ish olib borishning qaysi usullari va shakllari eng samarali bo‘lishi mumkin? To‘liqsiz oilalardagi bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagoglar nimalarni hisobga olishlari zarur? “O‘g‘limni men yolg‘iz o‘zim tarbiyalayman. U otasini hech ko‘rmagan, bundan keyin ham ko‘rmasa kerak. Bola faqatgina ayollar orasida o‘sayotgani meni tashvishlantiradi: uyda men va mening dugonalarim, bolalar bog‘chasida – enagalar va tarbiyachilar, maktabda ham faqatgina ayollar bo‘ladi. U yaqinda yetti yoshga to‘ladi, lekin haligacha u birorta erkak bilan gaplashgan emas. Shunday sharoitda erkaklarcha xarakter belgilari shakllanishi mumkinmi?”

98. Oila genogrammasi (nasabnama) tushunchasini izahlang.

99. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oila bilan ishlash texnologiyalasini tushuntirib bering.

100. Ijtimoiy ish mutaxassisining o‘rni va vazifalari tushuntirib bering.

101. Siz quyida keltirilgan fikrning muallifiga qo‘silasizmi? Jinoyat sodir etgan kishining sha’ni to‘g‘risida so‘z yuritish mumkinmi? “Jazolar ichida eng qattig‘iga loyiq bo‘lgan jinoyatchini ham haqorat qilish, shaxsiyatiga tegish mumkin emas, uning “MEN”ini pastga uruvchi iboralarni qo’llash mumkin emas. Jazolash mumkin! Biroq, qo‘pollik...” barchasini izohlab bering.

102. Oila ekokartasi (ekoxaritasi). Daraxtini (shajarasini) tuzishni tushuntiring.

103. Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish profilaktikasini tushuntiring.

104. Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarga yordam ko‘rsatish Markazlari faoliyatini yoritib bering.

105. Oila oldida turgan asosiy muammoni aniqlang. Yordamning qanday shakllari va usullarini taklif qilishingiz mumkin? Shu oila bilan olib boradigan ish rejasini tuzing.

“Bundan bir necha yil avval biz erim bilan bolalar uyidagi bir qizchani farzandlikka oldik. Tez orada erim vafot etdi va men qizchani yolg‘iz o‘zim tarbiyaladim. Hamma narsa yaxshi kechayotgan edi, biroq o‘tgan yili Sveta qo‘sni ayoldan mening o‘z qizim emasligini bilib oldi. Shu davrdan boshlab hamma narsa chappasiga ketdi. Qizim uydan tez-tez ketib qola boshladi, menga quloq solmay qo‘ydi, bir kuni hatto zahar ham ichib oldi, reanimatsiyada og‘ir ahvolda yotdi. Hozir qizim 14 yoshga kirayapti, yettinchi sinfni tugatmoqda. O‘qishi yomon, ko‘pincha darslarni qoldirib turadi, diskotekaga qatnaydi, chekadi. Bizning qarindoshlarimizdan birortasini ham tan olmaydi. Uyga juda kech qaytadi. Men uni kutib u xlabel olmayman, tashvishlanaman. Nima qilishim kerak? Mana shunday munosabatda va mana shunday narxlar bo‘lganda yashash juda qiyin. Atrofimdagilar uni qiz qilib olganim uchun meni qoralashadi, men esa azoblanmoqdamen. Muammolarim qarshisida yolg‘iz o‘zimman, maslahatlashadigan hech bir kishi yo‘q. Mening ahvolimni hech kim tushuna olmaydi. Iltimos qilaman, yordam bering!”

106. Oila siyosati tushunchasi va tamoyillarini yoritib bering.

107. Qiyin ahvolda bo‘lgan oilalar bilan ishlashda qanday ijtimoiy texnologiyalardan foydalanish kerak?

108. Oiladagi shafqatsiz munosabatning asosiy sabablari ko‘rsating.

109. Mazkur oila davlat ijtimoiy himoya tizimi tomonidan rasmiy yordam olishi mumkinmi? Shu oila bilan olib boriladigan ish rejasini tuzing.

“Men juda og‘ir ahvolga tushib qoldim va undan qanday qilib chiqishni bilmayman. Kuchlarim tugadi, ruhiy tushkunlikka tushdim va ayanchli ahvoldaman. Yolg‘iz o‘zim uch bolani tarbiyalayman, buning uddasidan chiqishim ham mumkin edi. Bir yil avval uyimiz yonib ketdi va hozirgacha uysizmiz. Rayon ma’muriyati masalamizni hal qila olmayapti. Hozir qarindoshlarimiznikida ijarada turibmiz. Ular bizning boshqa turar joy topishimizni so‘rashayapti. Ijaraga uy olish imkonimiz yo‘q, sotib olishga esa allaqachon kuchimiz yetmaydi. Boradigan joyimiz yo‘q. Men

cheksiz darbadarlik va haqoratlanishlardan charchab ketdim. Biror kishi bizga yordam bera olarmikan yoki biror kishi qanday yashashimiz mumkinligi to‘g‘risida masalahat berarmikan?”

110. Xorijiy mamlakatlarda oilalarga qaratilgan siyosatini yoritib bering.

111. Zo‘ravonlikning shakllari va turlarini tushuntirib bering.

112. O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi haqida ma’lumot bering.

113. Mazkur oila davlat ijtimoiy himoya tizimi tomonidan rasmiy yordam olishi mumkinmi? Shu oila bilan olib boriladigan ish rejasini tuzing.

“Men juda og‘ir ahvolga tushib qoldim va undan qanday qilib chiqishni bilmayman. Kuchlarim tugadi, ruhiy tushkunlikka tushdim va ayanchli ahvoldaman. Yolg‘iz o‘zim uch bolani tarbiyalayman, buning uddasidan chiqishim ham mumkin edi. Bir yil avval uyimiz yonib ketdi va hozirgacha uysizmiz. Rayon ma’muriyati masalamizni hal qila olmayapti. Hozir qarindoshlarimiznikida ijarada turibmiz. Ular bizning boshqa turar joy topishimizni so‘rashayapti. Ijaraga uy olish imkonimiz yo‘q, sotib olishga esa allaqachon kuchimiz yetmaydi. Boradigan joyimiz yo‘q. Men cheksiz darbadarlik va haqoratlanishlardan charchab ketdim. Biror kishi bizga yordam bera olarmikan yoki biror kishi qanday yashashimiz mumkinligi to‘g‘risida masalahat berarmikan?”

114. “Mana bir necha yildirki, meni baxtsizliklar ta’qib etmoqda - oldin erim fojiali halok bo‘ldi, hali o‘zimga kelib ulgurmagan ham edimki, otam va onam birin- ketin qattiq betob bo‘lib qolishdi va hayotdan ko‘z yumishdi. Biz kichkina qizcham bilan yolg‘iz qoldik. Qizim jiddiy xastalikka yo‘liqqan va biz uni davolash uchun boshqa mamlakatga ketishimiz zarur. U yerda bizning qarindoshlarimiz bor, ular o‘z mamlakatlarida bizni doimiy turar joy bilan ta’minalashlari mumkin. Fuqarolik mamlakatlarida bizni doimiy turar joy bilan ta’minalashlari mumkin. Fuqarolik to‘g‘risidagi masala ham ko‘p o‘tmay hal bo‘ladi. Biroq, mushkullik shundaki, davolash uchun zudlik bilan katta miqdordagi pul topishim kerak. Buncha pulni oladigan joy yo‘q. Ehtimol xonadonimni sotish kerakdir? Biroq, hozircha biz shu xonadon ro‘yxatidan o‘tganimizni saqlab turishimiz zarur. Bizga yordam berishi mumkin bo‘lgan tashkilotlar bormi? Nima qilaylik, maslahat bering”.

115. Quyida keltiriladigan ikki oila muammolarining umumiyligi nimada? Bu oilalarning har biri bilan muloqotga kirishiar ekan, ijtimoiy xizmatchi qanday ish usullari va shakllaridan foydalanishi lozim? Bu oilalar bilan ishlash uchun o‘z variantlaringizni taklif qiling.

a) “Mening erim bilan turmushim ikkinchi turmush va hozircha umumiyligi bolalarimiz yo‘q. Menga uning o‘g‘li va mening qizimni har ikkimiz bir xil sevadigandek tuyulardi. Biroq, u o‘zining o‘g‘li qilsa kechiradigan narsalarni qizim qilsa kechirmayotganini sezsa boshlaganimdan keyin ahvol bunday emasligini tushundim. Endi ikkalamiz o‘rtamizda tirnoq ostidan kir izlash bo‘yicha musobaqa boshlandi. Biz ajralishni istamaymiz, biroq bolalarga shikast yetkazish ham mumkin emas”.

b) “20 yoshimda sevgan odamimga turmushga chiqdim. Bir yildan keyin o‘g‘limiz tug‘ildi. Erim yomon emasdi, faqat ortiqcha yalqov va ichkilikka moyil edi. Bu moyillik bora-bora uning hayoti mazmuniga aylandi. Meni o‘g‘lim bilan urib ko‘chaga haydar chiqaradigan odat paydo bo‘ldi. Bir necha yil tishimni-tishimga

qo‘yib chidaganimdan keyin oxiri ajralish to‘g‘risida ariza berdim. Menga hayot tugaganday tuyuldi. Biroq, ma’lum vaqtdan keyin bir ajoyib odamni uchratdim, u faqat meni emas, o‘g‘limni ham yaxshi ko‘rardi. Shu holat taqdirimizni hal qildi – biz turmush qurdik. Dastlabki bir yarim yil davomida men chindan ham baxtli edim: birorta ham janjal bo‘lmadi, u doim menga ko‘maklashardi, birgalikda tog‘larga sayohatga borardik. Erim katta o‘g‘limizga ochiqchasiga sovuq munosabatda bo‘la boshladi, barcha g‘amxo‘rligi va sevgisini chaqaloqqa qaratdi. Endi munosabatlar qarama-qarshiliklar asosiga qurila boshladi: birinchisini o‘padi, ikkinchisiga esa baqiradi va shapaloq tushiradi. Qo‘limdan kelganicha o‘g‘limning yonini olishga harakat qildim. Bunga javoban esa borgan sari ko‘proq: “Uni qayerga hohlasang olib ket. U menga kerak emas. O‘zing ham u bilan birga yo‘qol. Mening o‘g‘limni esa tashlab ket!” – degan gaplarni eshita boshladim. Shunday qilib oilamizda dahshatli muhit vujudga keldi: erim imkon bo‘lishi bilan katta o‘g‘limni xafa qilardi, ikir-chikirlarga ham e’tibor berar, haqorat qilar, ba’zan esa urardi. Qo‘pollik,adolatsizlik va surbetlik bilan bizni uydan siqib chiqarmoqda. O‘g‘lim 8 yoshga kirayapti. U avvallari ham yuvosh, gapga kiradigan bola edi. Endi esa qo‘rroq, ma’yus bo‘lib qoldi. U hech kimga ko‘rinmaslik, o‘zining alohida dunyosiga yashirinib olishni istaydi. U qorong‘u tushguncha ko‘chada o‘rtoqlari bilan qolib ketadi. O‘rtoqlari esa uni juda yaxshi ko‘rishadi. Uyda esa otasidan laqablar eshitadi, ularning eng sillig‘i – “tentak” va “hayvon”. Erim erkak kishi qattiqqo‘l bo‘lishi kerak deb ishonadi. Nima qilsam ekan, maslahat bering!”

116. Oila siyosatning maqsadlarini tushuntiring.

117. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oila tushunchasi izoxlang.

118. Zo‘ravonlik holatlarida ayollar va bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslarini izohlang.

119. Sashaning xulq-atvorini qanday izohlaysiz? Sasha va uning tutingan ota-onalari qaysi mutaxassislarning yordamiga muhtoj? Oila bilan olib boriladigan ish rejasini tuzing.

“Sasha K. 10 yoshda. U hali 3 yoshga ham to‘limganda onasi bedarak yo‘qoldi. U yoki o‘zining joniga teggan uydan qochib ketdi, yoki bo‘lmasa, qandaydir yovuzning qo‘lida halok bo‘ldi, buni hozir hech kim bilmaydi. Sashani 10 yoshida farzandlikka olishdi. U o‘zining oilasi, uyi, otasi va onasi bo‘lishini juda istar edi. Biroq, farzandlikka olish rasmiylashtirib bo‘lingandan keyin bola oilada o‘zini o‘ng‘aysiz va noqulay his qila boshladi. Bolalar uyini sog‘ina boshladi. Sasha yolg‘iz o‘zi zerikib qolmasligi uchun tutingan ota-onalari bolalar uyidan yana bir qizchani – 4 yoshli Anyani farzandlikka qabul qilishdi. Bir kuni oiladagi arzimas janjaldan keyin Sasha avtobus bekatiga borib, to‘g‘ri kelgan avtobusga o‘tirdi va 40 km masofadagi boshqa shaharga ketib qoldi. Uni topishdi. Ma’lum muddatdan keyin u yana qochib ketdi. Bu hol takrorlanar edi. Ko‘ngliga nimadir yoqmasa avtobusga o‘tiradi va boshi og‘gan tomonga ketib qoladi. Bolalar psixiatri Sashani me’yordagi, biroq jamoaga kuchli ehtiyoj sezayotgan bola, deb e’tirof qildi. Sasha bolalar uyiga qaytishni istab qoldi”.

120. “Mana bir necha yildirki, meni baxtsizliklar ta’qib etmoqda oldin erim fojiali halok bo‘ldi, hali o‘zimga kelib ulgurmagan ham edimki, otam va onam birin-kekin qattiq betob bo‘lib qolishdi va hayotdan ko‘z yumishdi. Biz kichkina qizcham

bilan yolg'iz qoldik. Qizim jiddiy xastalikka yo'liqqa va biz uni davolash uchun boshqa mamlakatga ketishimiz zarur. U yerda bizning qarindoshlarimiz bor, ular o'z mamlakatlarida bizni doimiy turar joy bilan ta'minlashlari mumkin. Fuqarolik to'g'risidagi masala ham ko'p o'tmay hal bo'ladi. Biroq, mushkullik shundaki, davolash uchun zudlik bilan katta miqdordagi pul topishim kerak. Buncha pulni oladigan joy yo'q. Ehtimol xonadonimni sotish kerakdir? Biroq, hozircha biz shu xonadon ro'yxatidan o'tganimizni saqlab turishimiz zarur. Bizga yordam berishi mumkin bo'lgan tashkilotlar bormi? Nima qilaylik, maslahat bering".

**Tuzuvchi
Kafedra mudiri**



**E.X.Zaitov
N.M.Latipova**